O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
CHORTOQ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

161000, Chortoq shahri Istiqlol hiyoboni ko’chasi 24 uy

2024 - yil 7 - fevral 69-6-88-Q/24 Chortoq tuman hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-yanvardagi “Namangan viloyatida 2024-yilda davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 54-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrdagi 660-sonli qarori haqida”gi 54-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 31-dekabrdagi (01/25-18/1119-son, 25/4-2-son) hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 4-yanvardagi 01-26-19/29-sonli taklif xati ijrosi haqida”gi 54-6-0-Q/24-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Namangan viloyatida 2024-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga hamda ijara haqining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (M.Qutbitdinov) qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib tegishli o‘zgartirishlar kiritishi;

shahar va tumanlar hokimliklari hududlardagi davlat tashkilotlari va mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda balanslarida bo‘lgan, foydalanilmay bo‘sh turgan mulklardan samarali foydalanish, ularni ijaraga berish yuzasidan Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy taklif va ma’lumotlar kiritib borishi;

viloyat hududiy boshqarma, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek davlat mulkini balansida saqlovchi barcha muassasa va tashkilotlar rahbarlari:

tasarrufidagi va quyi tuzim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o‘tkazilishi va foydalanilmasdan bo‘sh turgan va yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, umumiy foydalanishda bo‘lmagan balansdagi yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo‘lgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko‘rsatilgan ma’lumotlarni quyi tizimlari tomonidan to‘liq va o‘z vaqtida Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta’minlashi;

viloyat teleradiokompaniyasi (M.Maqsudov), “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalariga Davlat aktivlarini boshqarish viloyat hududiy boshqarmasi hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi bo‘sh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar ro‘yxatini ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish tavsiya etilganlganligi;

Namangan viloyati hokimining 2023-yil 17-yanvardagi 22-6-0-Q/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat Kadastrlar palatasi Chortoq tuman bo‘limi (M.Mamajanov):

joriy yil 10-fevral sanasiga qadar Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Namangan viloyati hududiy boshqarmasiga tuman hududida mavjud davlat mulki obyektlarining yig‘ma kadastr hujjatlarini elektron holatda taqdim etsin;

doimiy ravishda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar mavjud davlat mulki obyektlaridan yig‘ma kadastr hujjatlariga o‘zgartirish (yangilangan) kiritilganlari to‘g‘risidagi hujjatlarini elektron holatda taqdim etib borsin.

4. Ushbu qaror “Chortoq haqiqati” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin. Qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **I.Sattarov**